

Atoqli olim sharafiga xalqaro anjuman

2025-yilning 27-noyabrida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida akademik Sodiq Azimov tavalludining 111 yilligiga bag'ishlangan "Akademik S.Azimov ilmiy merosi: fundamental fandan sanoat innovatsiyalarigacha" nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi rahbariyati va ilmiy xodimlari faol ishtirok etdilar.



Atoqli fizik olim, akademik, yadro fizikasi sohasining yirik vakili Azimov Sodiq Azimovich o'zi ishlab chiqqan usul yordamida kosmik nurlar tarkibida mezonlarga daxlsiz elektron va fotonlar mavjudligini isbotlagan. Pomir togi tepasidagi st



S.Azimov rahbarligida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fizika-texnika institutida quyosh nuri energiyasidan foydalanish usuli asosida o'ta sof yarimo'tkazgich materiallar olishning yangi texnologiyasi ishlab chiqilgan hamda 1987 yilda Parkent tumanida 1 megavatt quvvatga ega konsentratori bor noyob quyosh pechi barpo etilgan. Akademik yadro fizikasi, yuqori energiyalar fizikasi va yuqori haroratli geliomaterialshunoslik ilmiy maktablariga asos solgan.

Akademikni shaxsan tanigan va uni o'zlarining ilmiy rahbari deb bilgan plenar majlisda ma'ruza qilgan ko'plab olimlar Sodiq Azimovichning nafaqat ilm-fan ravnaqiga qo'shgan beqiyos hissasini, balki uning ochiqko'ngilligi, muloqotchanligi, insonparvarligi, yuksak ma'naviy-axloqiy tamoyillarini ham katta ehtirom bilan eslab o'tdilar.



Ma'ruza qilganlar orasida Navoiy bo'limi raisi o'rinbosari Quvondiq Nurboyev ham bo'ldi. U o'z taqdimotida radiometrlardan kon-metallurgiya sanoati va seysmologiya sohasidagi amaliyotda foydalanish imkoniyatlari haqida so'z yuritdi. Ta'kidlanishicha, mazkur asboblardagi qo'llanilayotgan datchiklarning asosida aynan S.Azimov tomonidan yaratilgan ilmiy ishlanmalar yotadi. Radiometrlar ixcham bo'lib, inson salomatligi uchun xavf tug'diruvchi radon gazining miqdorini aniqlash imkonini beradi. Ma'lum bo'lishicha, radon zilzilalar oldidan yer osti qatlamlaridan ko'p miqdorda ajralib chiqarkan. Shuning uchun ma'lum chuqurlikda radon konsentratsiyasini muntazam kuzatib borish orqali bo'lajak zilzila haqida oldindan ogohlantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Hozirda bu boradagi sinov-tajribalari davom etmoqda.



Xulosa qilib aytganda, ulug' olim S.Azimovning boy ilmiy merosi bugun ham atrofimizdagi olamni yaxshilashga, uning taraqqiyotiga hissa qo'shishda davom etmoqda.

FA Navoiy bo'limi matbuot xizmati.